

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

№ 27
(66464)

2004 yil
5 iyul - 11 iyul

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOY HARAKATI.

OILAVIY OBUNA

Nihoyat mening maqolam ham «Tong yulduzi»da bosilib chiqdi. O'zimda yo'q xursandman. Dugonalarim menga havas bilan qarashyapti. Uyga olib borib, dadam va ayamdan suyunchi oldim. Maqolam bahona gazetadagi barcha maqola va xabarlarini, she'r va hikoyalarni ham hijjalab o'qib chiqishdi. Bunday deyishimga sabab, ular lotin yozuvidagi alifboni to'liq o'zlashtirib olishmagan-da.




-Bu gazeta juda qiziqarli va o'qishli ekan. Tez-tez olib kelib turgin, birgalikda o'qib, biz ham lotin alifbosini o'rganib olamiz,- dedilar ayam...

Bu yil sinfimiz bilan bir dona gazetaga obuna bo'lgandik, uni navbatma-navbat o'qirdik. Kelasi yilda esa «Tong yulduzi»ga o'zim alohida obuna bo'larkanman. Dadam shunday dedilar.

Nafisa XOTAMOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
33 - maktabning
6 - «Ye» sinf o'quvchisi.

MENING «TILLO BUVIJONIM»



Buvilar ham tillo bo'lar ekanmi, deb so'ratingizmi? Ha, bo'lar ekan.

Mening buvimning ismlari Oltinoy. Ismlari o'zlariga yarashgan, mahallada obro'- e'tibor topgan ayollardan. 10 nafar farzandlari, 54 nafar nabiralari, 33 nafar chevaralari bor. Hozir 80 yoshdalar. Hayotlari mobaynida yaxshi-yomonni ilg'ab, yomonlarni ham qarg'amay o'tyaptilar. Qo'llari doimo duoda. Ammo 5 yildirki, mening «tillo buvim» yolg'iz yashaydilar. Bizga esa «ahil bo'linglar, mehr- muruvvatli va oqibatli bo'linglar», deb nasihat qilaveradilar. Albatta biz bu so'zlaridan hech zerikmaymiz. Haftada ikki- uch marta yonlariga borib turamiz. Mening baxtim shu nuridiydalarim degan tabbaruk so'zlaridan quvonamiz. Baxt shumi, buvijon, deb so'raymiz. Buvim shu kunlarga yetkazganiga shukronalar qiladilar. Nevara, chevaralarning yonlariga kelib, xizmatlarini qilib ketishlaridan shodlanadilar. Qarining qadrini qariganda bilasan, deydilar. Bizga omonlik tilashdan charchamaydilar.

Kecha men tillo buvimning oydek yuzlariga, shakardek shirin so'zlariga she'r yozdim va ularga o'qib berdim.

*To'lin oydek to'lishib mana,
Sakson yoshni qarshi oldingiz.
Sizga dunyo umrin tilaydi,
Boldan shirin bolalaringiz.*

Zilola ALIMARDON qizi,
Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani.

DUNYODA BIR TUYG'U BOR...

Uning ta'rifu tavsifi bisyor. Chamanzordagi eng iforli gulga, bozori yo'q, xaridori ko'p buyumga, qalblardagi noyob durga qiyoslashadi uni. Dillarni dillarga payvandlaydigan, o'ksik, majruh qalblarga malham bo'ladigan bu tuyg'uning nomi MEHRdir! U qancha mo'l bo'lsa, ichki va tashqi olamingni shunchalar ko'p bezaydi. Unga oshno tutinganlarni zarrin nurlarini sahiylik bilan sochayotgan bobo quyoshga, musaffo osmonda parvoz etayotgan ezgulik ramzi bo'lmish oppoq kabutarga qiyoslashadi.

Yaqinda Davlat bolalar kutubxonasida «O'zbekiston respublikasi bolalar kutubxonalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi», «O'zbekiston bolalar fondi» kabi tashkilotlarda mehnat qilayotgan ana shunday mehr-muruvvatli insonlar tashabbusi bilan mehr-muruvvat yiliga bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tdi.

«Sanvict» nomli Toshkent shahar badiiy ijodiyot markazida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan bolalar, 21-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari hamda Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan maktab o'quvchilari ishtirok etgan tadbir juda qiziqarli o'tdi. O'quvchilar yasagan yumshoq o'yinchoqlari, chizgan rasmlaridan tashkil qilingan ko'rgazmani yig'ilganlar katta qiziqish

bilan tomosha qilishdi. Yig'ilganlar Toshkent shahar nogiron bolalar ijodiyoti markazining 6 nafar qatnashchisi Kairda o'tkazilgan «Yegipet - bolalar nigohida» nomli xalqaro ko'rik-tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etganliklarini eshitib, ularni samimiy olqishlashdi.

Yaponiya, Chexiya va Hindistonda o'tkazilgan shunday musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib kelgan Dilfuza Obidjonovanning rasmlari turkumi mazkur tanlovda birinchi o'ringa loyiq topilgan ekan.

Markazning boshqa ishtirokchilari ham juda iqtidorli bolalar bo'lib, ustozlaridan haykaltaroshlik, milliy hunarmandchilik sirlarini qunt bilan o'rganib kelyaptilar. Nafaqat respublikamizda, balki chet ellarda ham

o'tkazib kelinayotgan turli ko'rik-tanlovlar, festivallarning faol ishtirokchilari bo'lishyapti ular.

Sevimli san'atkorimiz Mirzabek Xolmedov boshlovchilik qilgan tadbir ishtirokchilarini tashkilotchi jamg'armalarning raislari qizg'in qutlashdi. Umida Abduazimova, Ma'ruf Jalil va Boris Pak kabi sevimli shoiru adiblar bilan bo'lgan maroqli uchrashuvlar ular yodida uzoq muddat saqlanib qolishi tayin.

«Dunyo bolalar nigohida» deb nomlangan asfaltga rasm chizish musobaqasida hamda juda qiziqarli va jonli o'tgan sport bellashuvlarida ishtirok etmagan bola bo'lmadi hisobi.

Tadbir so'nggida uning barcha ishtirokchilariga «YUNISEF» hamda Qizil yarim oy jamiyatining sovg'a-salomlari ulashildi. Sport musobaqalari va tanlov g'oliblarini «O'zbekiston bolalar jamg'armasi» xodimlari qimmatbaho sovrinlar bilan taqdirlashdi. Qizg'in bellashuvlarda biroz toliqqan bolajonlar O'zbekiston bolalar kutubxonalarini qo'llab-

«Mehr va muruvvat yili»



quvvatlash xayriya jamg'armasi tomonidan yozilgan to'kin dasturxon atrofiga jamlandilar. Shunday ajoyib tadbir va sovg'a-salomlar uchun homiy tashkilotlarga, shuningdek, «Tufin», «Karavan», «Imkon plus», «Elito Dino» qo'shma korxonalari, «Bibigon» qahvaxonasi, «Champion» firmasi, «Oqibat» mahallasi faollariga o'z minnatdorliklarini bildirishdi.

Nargiza AKBAR qizi.
Suratlarda: Tadbirdan lavhalar.





BO'LDI AJIB ANJUMAN

Y a q i n d a O'zbekiston Milliy bog'ida «Toza suv kelajak avlodlarimizga» shiori ostida katta festival bo'lib o'tdi. Shahrimizdagi 101-, 90-, 222-, 1- hamda bizning Shayxontohur tumanidagi 316 - maktabimiz o'quvchilari ishtirok etgan ushbu festivalda Amerika va Koreya mamlakatlarining O'zbekistondagi elchixonalaridan ham mehmonlar kelishdi. «Nigoh» teatr-studiyasining chiqishlari, kuy va qo'shiqlari yig'ilganlarga manzur bo'ldi. Barcha maktablar o'zlari tayyorlab kelgan chiqishlarini namoyish etishdi. Ayniqsa, suv estafetasi juda qiziqarli o'tdi. Qo'lida suv to'la stakan ko'targan ikki ishtirokchi turli to'siqlardan o'tib, sakrab, yugurib suvning bir tomchisini ham isrof qilmagan holda manzilga yetkazib borishlari talab qilinardi.

Festivalda mag'lublar bo'lmadi, hakamlar hay'ati barcha ishtirokchilarni bir ovozdan g'olib deb topishdi va o'z sovg'a-salomlarini ulashishdi. Tadbir so'nggida barchamiz raqsga tushib, xursandchilik qildik, yangi-yangi do'stlar orttirdik.

Dilshod IMOMOV,

7 - «V» sinf o'quvchisi.

BIR TOPISHMOQ AYTAYMI?

«Yozda issiq, qishda sovuq». Topolmadik, shahar berdik, deysizmi, unda javobini o'zim ayta qolay: Bu bizning Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 5 - mavze, Qatortol ko'chasida joylashgan 46 - uyimiz. Uyimiz qishda sovuq, yozda esa juda issiq bo'ladi. Sababi, uning isitish tarmoqlari juda «zo'r» ishlaydida. Ota-onalarimiz turli tashkilot va idoralarga qatnay-qatnay qish oxirlab qolganda uyimizni bazo'r isitib olishadi. Shu isigancha yozda ham sovimaydi. Chunki isitish tarmoqlarini o'chirishmaydi-da. «Kelgusi yilda yana yoqib ovora bo'lib yuramizmi?», deyishadi chog'i. O'zingiz bir tasavvur qilib ko'ring-a, yoz chillasida isitish tarmoqlarining harorati 30 darajadan yuqori bo'lsa. Doimo terlab yuradigan ukalarimizning boshi shamollashdan chiqmay qoldi.

Yana o'sha manzara - otalarimiz bahordan beri idorama-idora yurib, isitish tarmoqlarini o'chirolmay ovoralar. Mutasaddi tashkilotlarda ishlaydigan amakilarimiz buncha ham loqayd bo'lishmasa?!

**Shu uyda yashaydigan bolalar nomidan
Maftuna QO'CHQOROVA.**

IKKICHI SAJJOR



Uy ishin bajarolmay,
Dadasidan so'rar Sallor.
Dadasi der: Qo'ygin o'g'lim,
Fushunmayman, oyingga bor.
Oyisi der: Ko'p ishim,
Dazmollashim kerak shim.
Ana opang ishlar zo'r,
Qani bir, oborib ko'r.

Opasiga borib der,
Opa misol ishlab ber.
Opasi der: Kutib tur,
Men yod olayapman-ku she'r.
Kutaman deb opasin,
Sallor uxlab qolibdi,
Ertasiga maktabela,
Ikki baho olibdi.

Sitora ALIYEVA,

Poytaxtimizdagi 296-maktabning
7- «I» sinf o'quvchisi.

DO'STLIK - TINCHLIK ELCHISI

O'zbekistonlik aziz do'stlarim, men sizlarga qo'shni Tojikiston respublikasining Leninobod shahridan maktub yo'llayapman. Yaqinda bizning Prezidentimiz Imomali Rahmonov Toshkentda o'tkazilgan Shanxay t a s h k i l o t i s a m m i t i d a qatnashdi. Biz bu uchrashuvni oyna-yo'nalish jahon orqali zo'r qiziqish bilan kuzatib bordik. Asrlar davomida o'zbek- tojikchalab so'zlab, kuylab, ahilinoq yashab kelgan xalqimiz yana birga. Ayniqsa, hozirgi terrorizm - ekstremizm kabi oqimlar tinchligimizga tahdid solib turgan vaziyatda xalqlarimiz bir tanu bir jon bo'lib yashasak, doimo yurtlarimiz tinch, hayotimiz farovon bo'ladi.

MADINABONU, 7 - «B» sinf o'quvchisi.



TIL BILGAN EL BILADI

Dono bobolarimiz ushbu naqlni bejiz keltirishmagan. Chunki til bilgan kishi har doim el ardog'ida bo'lgan. Hozir buning uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Insonda xohish bo'lsa bas. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganish ommalashib bormoqda. Darsliklar va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, ingliz tilini mukammal o'rganishga harakat qilayapmiz. O'ylaymanki, biz buning uddasidan chiqamiz. Biz o'zimizga yaratilgan barcha qulayliklardan oqilona foydalanishimiz, bo'sh vaqtlarimizni behudaga sarflagandan ko'ra, biror til o'rganish yoki kitob o'qish bilan mashg'ul bo'lsak, maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero, til bilgan tengdoshlarimiz oldida boshimizni qashlab qolmaylik.

Shohida ORTIQOVA, Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahridagi 14-maktab o'quvchisi.

Har bir insonning qalbidagi eng buyuk tuyg'u bu - mehr tuyg'usidir. Yer yuzida hayot paydo bo'lishi bilanoq odamlar bir-biriga yordam qo'lini cho'zib, mehr-oqibat ko'rsata boshlaganlar. Avlod-ajdodlarimiz dono, aqlli, ziyarak, bilimdon bo'lishlari bilan bir qatorda o'zgalarning g'amiga sherik



MEHR - OLY FAZILAT

bo'lib, og'irini yengil qilishgan. Ko'mak berishgan. Bu insoniy fazilatlar birovlar tomonidan buyurilib emas, balki qalblardagi iliq mehr tufayli namoyon bo'lgan. Bizga otabobolarimizdan ana shunday fazilatlar merosdir. Go'dakning beg'ubor kulgusida, onaning ma'sum allasida, keksalarning duclarida mehr mujassam. Bu mehr qalbimizning tub-tubida yashaydi. Bugun ertalab o'qishga ketayotsam, hassaga suyanib olgan otaxonning sekin-asta odimlayotganini ko'rib, salom berdim. Ularning qo'llaridan tutib

Ahillik ko'zgu kabidir

a v t o b u s bekatigacha kuzatib qo'ydim.

«Ota-onangga rahmat», deya duo qildilar. Mening o'rnimda boshqa kishi bo'lganida ham xuddi shunday qilgan bo'lardi. Mehr sotilmaydi, sotib olinmaydi. Bu tuyg'u siz-u bizning kimligimizni anglatadi.


Yurtimizda sahovatpesha insonlar ko'plab sport komplekslari, maktablar, bolalar bog'chalari, o'yingohlarni barpo etib, xayriya sifatida bolalar ixtiyoriga topshirishmoqda. Qalbi pok insonlarning sa'y - harakati tufayli maktab-internatlarga, Mehribonlik uylariga turli jihozlar, darsliklar, kiyim-kechaklar beg'araz yordam sifatida berilmoqda. Har bir oila bitta vatandir. Oilaning har bir a'zosi o'rtasida ahillik, birlik bo'lsagina, bu vatan gullab yashnaydi. Ahillik, inoqlikning negizi bu - mehrdir. Kattalarni ko'rganda salom berish, o'rnidan turib joy berish, davra to'riga o'tkazish hurmat hisoblanadi. Kichiklarni ranjitmaslik ularga izzat ko'rsatish siz -u bizning burchimizdir. Bularning barchasining zamirida oilada berilgan tarbiya, hamjihatlik yotadi. Ota-onalarimizning yumushlariga yelkadosh bo'lishimiz ham mehr belgisidir. Har bir oilaning sha'ni, uning a'zolarining yuksak didi va ma'naviyati bilan bilinadi. Qalbi toza, pok inson hamisha el hurmatida bo'ladi. Vatanimiz, ota-onamizni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz, qalbimizdagi mehr-muruvvatni asrashimiz bilan barobardir. Zero, mehr urug'i har bir qalbdagi gurkirab o'ssin, zavol bilmasin.

Nuriddin HAYDAROV,

O'zMU qoshidagi

Sobir Rahimov akademik

litseyining 3-bosqich talabasi.



Muzqaymoq sotuveni xolaga mazza-da... Xohlaganicha muzqaymoq yeyishi mumkin. Kamroq yegin, tomog'ing og'rib qolmasin, deydigan onajonisi ham yonida emas. Katta bo'lsam men ham «muzqaymoqchi xola» bo'laman. O'shanda istaganimcha muzqaymoq yeyman... Yo'q, yaxshisi o'qituvchi bo'laqolay. Bayramlarda ularga sovg'alar berishadi... Yaxshisi, «Kattakon kema kapitani» bo'laman. Kemaga o'tirib olib, mazza qilib sayohat qilaman. Butun dunyoni o'z ko'zim bilan ko'raman...

Unisi ham, bunisi ham emas. Katta bo'lsam, albatta she'r yozaman...



ORZUMIDI YO HAVAS?

qofiyasi kelishmasa ustozimiz bizga hikoya yoki xanda yozishni maslahat beradilar. She'r qofiyalarini topishga biroz qiynaladigan do'stlarimiz shunaqangi xandalar yozishadiki, k u l a v e r i b

ichaklarimiz uzilay deydi. Shundagina anglaymizki, ustozimiz n a f a q a t ko'nglimizni ko'taradilar, b a l k i bizning b o s h q a

ijodiy qirralarimizni ham kashf etadilar. Har dushanbani intiq kutishimizni, shu kuni bir-ikki soat avval tahririyatga borib, eshik tagida turib olishimizni aytmaymizmi?..

Ustozimiz 27 iyun - Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunida yurtboshimizning qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar. Bu xushxabardan bizning ham boshimiz ko'klarga yetdi. Feruza opa, shogirdlarim muvaffaqiyati, yutug'i mening ham yutug'imdir, deydilar. Demak, ularning yutug'i bizniki hamdir. Xursandligimizdan ustozimizni birinchi bo'lib tabriklashga oshiqdik. Ustoz haqida maqola yozib, sevimli gazetamiz orqali qutlashni rejalashtirib ham qo'ydik. Shu maqsadda ular bilan suhbatlashib, ko'p narsalarni bilib oldik. Bizning

yoshimizda yozgan she'rlaridan ayrimlarini eshitdik:

JANJALKASH QUYONCHA

-Birinchi she'rimni 4-sinfda o'qib yurgan kezlirimda yozganman. Uni «Janjalkash quyoncha» deb nomlagandim. She'rim tuman gazetasida bosilib chiqqani maktabimizda meni taniqli qilib

lekin ularni hech kimga ko'rsatmasdim.

Ehtirom

Bir kuni marhum ustozim Hamza Imomberdiyev: «Nima uchun polapon yomg'ir yog'sa xursand bo'ladi?», deb savol berdilar. O'ylanib qoldim. Shunda o'zlari: «Chunki yomg'ir yoqqan vaqtda ona chumchuq o'z polaponlari yonida bo'ladi. Shuni she'r qilib yozingchi», deb topshiriq berdilar. Ertasi kuni polapon haqida 8 qator she'r yozib keldim. Ustozim she'rimni o'qib ko'rib, yanayam ixchamlashtirib keling, dedilar. She'rimni yanayam «qisqartirdim»:

*Yomg'ir yog'sa polaponning
Ko'ngli sevinchga to'lar,
Chunki bu dam onajoni
Uning yonida bo'lar...*

She'rim ustozimga ma'qul bo'ldi. O'ylab qaragam, ular menga she'r yozishnigina emas, fikrni qisqa, lo'nda bayon etishni ham o'rgatgan ekanlar. «Tong yulduzi»ga «qisqa yozish maktabi» deya ta'rif bergan sevimli shoirimiz, marhum Safar Barnoyevdan ham juda ko'p narsalarni o'rgandim...

Hozir esa o'rganganlarimni sizlarga o'rgatishga intilyapman. Chunki Sizning timsolingizda «Tong yulduzi»ning kelajagini, ertangi kunini ko'raman...


Ustozimizning ustozlari haqidagi maroqli xotiralarini tinglarkanmiz, ixlosimiz yanada ortdi. Biz ham Feruza opaga munosib shogird bo'lishga, keyinchalik ular haqida faxr va mehr bilan so'zlab yurishga ahd qildik.

«Istiqlol umidlari» to'garagi a'zolari nomidan:

*Shahnoza RAVSHANOVA,
Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Munisa KOMILOVA,
Dilshod IMOMOV,
Dilshod G'AFUROVlar.*

Bolalarcha samimiy, o'zgaruvchan bu orzular bundan bir necha yillar avval tug'ilgan edi. Ayni damda ushbu orzular ushaldimi yoki yo'qmi buni orzular sohibasidan so'rasak. Kim ekan u, deysizmi? Siz uni yaxshi taniysiz. Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ning jonkuyarlaridan biri, 25

Muvaffaqiyatni kishi hayotda erishgan mavqe bilan emas, balki o'sha muvaffaqiyatni qo'lga kiritib, u qanday to'siqlarni yengib o'tgani bilan o'lchash kerak.
B. VASHINGTON.



O'qishdan ajralmagan holda «Lenin uchquni» (hozirda «Tong yulduzi») gazetasida ishlay boshladim. Ko'plab bolalarbop she'rlar mashq qilardim-u,

ONALARNING KO'NGLI XOTIRJAM

Bolajonlarning yozgi ta'til kunlari ayni qizg'in pallada. Bolalar oromgohlari, dam olish maskanlari, sayilgohlar, mahallalarimiz ularning sho'x-shodon ovozlari bilan to'lib-toshgan. Shuningdek, bizning 271-maktabimiz quchog'i ham bolajonlar bilan gavjum. Maktab qoshida tashkil qilingan oromgohda 40 nafar kichikintoy miriqib hordiq chiqarishyapti. Tog' yon bag'irlaridagi so'lim oromgoh bo'lmasa-da, sharoitlari ulardan qolishmaydi. «Kitobsevarlar», «Musiq», «Tasviriy san'at», «Naqqoshlik», «Tabiatshunoslik» kabi to'garaklar o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga, ularga kasb-hunar o'rgatishga xizmat qilsa, muzey va istirohat bog'lariga qilgan sayohatlari dunyoqarashlarini kengaytiriyapti. Bolajonlarning har tongi badantarbiya mashqlarini bajarish bilan boshlanadi. Deyarli har kuni uyushtiriladigan sport musobaqalari bolalarning jonu dili. Oshpaz Dilfuza opa kuniga ikki mahal bolajonlarni totli taomlar bilan siylaydi. Oromgohda faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilar, to'garak rahbarlari - Toshkent tumanidagi ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji pedagogika fakultetining 2 - bosqich amaliyotchilaridirlar. Dam oluvchilar bilan suhbatlashganimizda, bu maskanda miriqib hordiq chiqarishayotganini aytishdi. Demak, kollej talabalari hali amaliyotda bo'lsalar-da, o'z vazifalarini yaxshi uddalashayotgan ekan. Muhimi, onalarning bolalaridan ko'ngli xotirjam. Ishlarida unum, baraka bo'ladi.

Iroda SHARIPOVA, 11 - «A» sinf o'quvchisi.



Shahrimizdagi «Mehribonlik uyi»da bo'lganimdan so'ng, sakkiz yoshlar atrofidagi Xislat ismli bir bolakayning siyмосi ko'z o'ngimdan ketmay qoldi. U ham jisman, ham aqlan tengqurlaridan ancha orqada qolgandi. Mudira opaning bolalar to'g'risidagi

o'ylantirib qo'ydi meni.

G'arbda behayo filmlar, yarimyalang'och ayollar rasmlarini ko'raverib, chaqaloqlarni laylak olib

kimdir Ollohning irodasi... Lekin Olloh insonga aql-idrok ham bergan-ku axir. Bunday ota-onalar Shekspirning Julyettasi 14 yoshida, Navoiyning Layli va Shirini

YER DEB, OYDA YURGANLAR...



kelmasligini allaqachon tushunib olgan o'smir qizlarga ta'lim doirasida maxsus tibbiy tushunchalarni ayollar shifokori beradi. Bizning o'smir qizlarimizga ham ana shunday saboqlar berib borilsa, maktablarda qizlar shifokori faoliyat ko'rsatsa, yuqoridagidek noxushliklarning oldi olingan bo'larmidi?!

Ayrim ota-onalarimiz hatto pasport olishga ham ulgurmagan, qo'lida hech bir hunari bo'lmagan 15-16 yoshli qizlarini uzatib yuborishadi. Ular kelin bo'lib tushayotgan oilani tuzukroq surishtirishmaydi ham. Natijada bu qizlarimiz boshi berk ko'chalarga kirib qolishadi. Axir Amir Temurdek sohibqiron ham farzandlariga munosib umr yo'ldosh topish uchun davlat ishlarini bir chetga surib qo'ygan ekanlar-ku.

Muhabbat ismli soddagina qishloq qizi ham ana shunday qismatning qurboni bo'lgan. U maktabda a'lo baholarga o'qirdi. Olimpiadada birinchi o'rinni egallagan uchun akademik litseyga imtiyoz bilan kirish huquqiga ega bo'ldi. Toshkentni ko'rish, oliygohda o'qib, shifokor bo'lish eng katta orzusi edi uning. Ammo ota-onasi uning orzularini sarobga aylantirib, 15 yoshida turmushga berishdi. Qiz bechora kuyovni to'y kuni ko'rdi. Bir yildan so'ng esa homiladorlikni ko'tarolmay, olamdan o'tdi. Buni kimdir taqdir dedi, yana

16 yoshida haqiqiy sevgiga yuz tutishgan, deya o'zlariga taskin berishar? Ularning boy ma'naviyatli, o'qimishli, hunarli bo'lganliklariga ham e'tibor berishsa, foydadan holi bo'lmasdi. Chunki qizlarimizda bu xususiyatlar shakllanmagan bo'lsa, haq-huquqlari toptaladi, orzulari poymol bo'ladi.

Sinfimizga boshqa maktabdan bir qiz keldi. Dastlab darslarni o'zlashtirishga biroz qiynalib, menga suyanib qoldi. Boshida yaxshigina qizga o'xshagandi. Lekin keyinchalik qiz bola nomiga nomunosib qiliqlari bilan ixlosimni qaytardi.

Bir kuni sinfda o'tirsam, dugonam tashqaridan halloslab kirib keldi-da:

-Iltimos, o'qituvchimiz meni so'rasa, tobi qochib qoldi, deb qo'yingin. Bir bola meni kinoga taklif qilyapti, bormasam bo'lmaydi,-deya shoshib chiqib ketdi.

-Axir hozir matematika bo'ladi-ku,- dedim ajablanib.

-O'qiyverib kompyuterga aylanibsan, qolibsan. Hissiyot nimaligini bilmaysan-a,-dedi kinoya bilan.-Onam qiz bolaga o'qish shart emas. Undan ko'ra ish qilishni o'rgan, 9-sinfni bitirsang, uzataman, deb yuribdilar. O'ynab-kulganim qoladi.

Ertasi kuni qizlarga bema'ni sarguzashtlari haqida, muhimi, onasi hech narsani sezmagani haqida to'lqinlab so'zlab berdi...

Ko'pchilik qizlarimiz onalari bilan bunday mavzularda suhbatlashishmas,

Faqat qizlar o'qisin

«uyat» bo'ladi deya ularni gapirtirgani ham qo'yishmas ekan. O'smirlik bo'sag'asida turgan biz qizlar ilk hayot saboqlarini ko'chadagi «dono» dugonalarimizdan emas, munis va dono onajonlarimizdan olsak, buning nimasi uyat?

Onajonlarim, bo'yimiz bo'yingizni bo'ylagani hamonoq sizga taqlid qilib, o'z olamimizni yarata boshlaymiz. Olamimizga biz bilan birga kiring. Shunda adashganlar ham, isnodga qolganlar ham bo'lmaydi. Biz axir oyog'iga shohlar bosh urib, yuragini zabt etolmagan, g'ururini toptaganlardan beayov o'ch olgan, aql-zakovat va jasurlikda erkaklardan qolishmaydigan To'maris momoning avlodlarimiz-ku.

*Yuragim qon,
Tengdoshlarim xarob ko'rsam.
Qiymlar jon,
Orzularim sarob ko'rsam.
Ko'nglim vayron,
Kitoblarni ermak bilsa,
Ne deb hijron,
Bu hayotni o'yin qilsa.
Baxtin topmay,
Adashgan qalb ursa fig'on,
Yo'lin topmay,
Ming so'qmoqda yursa sarson.
Achinaman,
Yer deb Oyda yurganlarga,
Orzu uchun
Qumdan qasr qurganlarga.*

Shahnoza RAVSHANOVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi
2 - ixtisoslashtirilgan maktab
o'quvchisi.

ma'lumotlar daftarida yozilishicha, bu bolakayni onasi o'n besh yoshga to'lmay dunyoga keltirgan va tug'ruqxonaga tashlab ketgan ekan. Maktabda hech kim sezmasligi uchun qornini mahkam bog'lab, homila rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan...

Bunday noxush voqeaning sodir bo'lishiga kim sababchi, qizning o'zimi, onasimi, unga ta'lim-tarbiya bergan o'qituvchilarimi, degan savol

Rivoyat qilishlaricha, bir ayolni qaysidir gunohi uchun o'limga mahkum etishibdi. Dor tagiga ketayotgan ayolning ko'ylagining bir chekkasi yirtilib qolgan ekan. Uni olib ketayotgan odamlardan igna va ip so'rab, ko'ylagini tikib olmoqchi bo'libdi. «Hozir baribir o'lib ketasan-ku. Ko'ylagingni tikib nima qilasan?» deb so'rashganda: «Men iboli, hayoli ayolman. Hatto o'layotganimda ham tanamni hech kim ko'rmasligi kerak», deb javob bergan ekan.

Men bu rivoyatni bejiz keltirganim yo'q. Rusmning ketidan yugurib, ochiq-sochiq holda yurgan ayrim dugonalarimga saboq bo'lsa, shoyad. Ko'chalarda, katta-yu kichikning oldida kalta yubka-yu tor shimlarda

QISSADAN HISSA CHIQRISH SIZDAN

bemalol yurgan qizlarni ko'rib, ular uchun men uyali ketaman. Tanbeh bergim keladi-yu, o'zimga keladigan javobni o'ylab, fikrimdan qaytaman. Ayrim xonandalarimizni aytmaymizmi? Elim, ona yurtim, xalqim deya sahnada jo'shib qo'shiq kuylashadi-yu, o'zlarining kiyimlari o'zbekona emas...

O'zlarini o'ta zamonaviy hisoblaydigan, go'zallikni, madaniyatni faqat tashqi ko'rinishdagina deb hisoblaydigan ayrim dugonalarimga aytar gapim bor: Axir siz ham ertaga bir oilaning bekasi, ONA bo'lasizlar-ku. Qizlaringizning ham xuddi o'zingizdek kiyinishlarini xohlarmidingiz? Unda bizning o'zbekona urf-odatlarimiz, milliyligimiz qayerda qoladi?

Munavvar ABDULLAYEVA,
Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 22 - o'rta maktabning
8 - «B» sinf o'quvchisi.



DO'PPI KIYMAGAN DUGONALARIM


Biz nozik didli, nazokatli xalqimiz. Milliy, o'zbekona kiyimlarimiz ham didimizga mos. Ota-bobolarimiz, momo-yu buvilarimiz milliyligimizni, qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni qadrlab, avaylab-asrab kelishgan. Lekin yurtimizga Yevropa madaniyati kirib kelib, bizning madaniyatimizga, kiyinishimiz, yurish-turishimizga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Qizlarimiz milliy liboslarimizni kiymay qo'yishdi. Hozirgi kunda onaxonlarimiz boshlaridan qo'ymay kelgan nafis jiloli iroqi do'ppilarimizni faqatgina kelinlarimiz yoki raqqosalarimizning boshlarida ko'rishimiz mumkin. Nima, do'ppini biz kiysak yarashmaydimi?..

Shuni bilish maqsadida bir hafta boshimga do'ppi kiyib yurdim. O'ta zamonaviy, aytish mumkinki, yarimyalang'och kiyinib olgan qizlarimiz, vuy anavi qishloqi qizni qaranglar, kelinlarga o'xshab do'ppi kiyib olibdi, deya lab burishdi. Ba'zi qizlarimiz, yoshi ulug' otaxonu onaxonlarimiz esa havas bilan boqishdi. «Haqiqiy o'zbek qizlari ham bor ekan-ku», degan gaplarni eshitib, zamonaviy qizlar vayron qilgan ko'nglim biroz taskin topdi. Milliy liboslarimiz haqida kimdir fikr so'rasa yoki maktabda shu mavzuda insho yozgudek bo'lsak, liboslarimizni og'zimiz to'lib maqtaymizu, ularni kiyib yurishga o'zimiz or qilamiz.

Rusmning ketidan quvib, yetolmayotgan dugonalarimga ikki og'iz aytar gapim bor: Qanchalik zamonaviylashib, ilgarilab ketmang, o'zligingizni unutmang, milliyligingizni yo'qotmang. Shundagina katta-yu kichikning hurmatiga sazovor bo'lasiz.

Xurshida NIYOZOVA, Nafis san'at litseyi o'quvchisi.





Sog' yurak - tog' yurak

Nozigul Alimatova 1987 yilda Andijon shahrida tug'ilgan. 7 yoshidan boshlab sport bilan muntazam shug'ullanib keladi. U Andijon shahridagi 11- o'rta maktabda tahsil oladi. 1998 yili Respublika Olimpiya zahiralarida (ROZK)ka o'qishga kelgan. Birinchi murabbiyi Svetlana Belousomova Ivanovna. 2003 yildan buyon O'zbekiston chempioni. Bir necha yirik musobaqalar sovrindori. Sportdagi ilk safari Malayziyadan boshlangan. 2002 yili Hindiston, Janubiy Koreya va Qozog'istonda bo'lib o'tgan xalqaro musobaqalarda faxrli o'rinlar sohibasiga aylangan. Hozirda ROZKning sport gimnastikasi bo'limida 10-sinfni tamomladi. Maqsadi - 4 karra Olimpiya o'yinlari qatnashchisi Oksana Chusovitina kabi mohir gimnastikachi bo'lish.

shahardagi 2-Bolalar va o'smirlar sport maktabi (BO'SM) ning sport gimnastikasi bo'limida o'tkaza boshladi. Nihoyat, 7- sinfni tamomlagach, ustozini taklifi bilan maxsus sport maktabiga yo'llanma oldi. Bu maktabga kelganida u gimnastikaning yo'l-yo'riqlarini anchagina tushunib qolgandi. Viloyat, tuman, shahar birinchiliklarida munosib o'rinlarni egallashga ulgurandi. Shu bois ham dastlabki mashg'ulotlarda hech bir qiyinchilik sezmad. Faqat

kiritilganda, uning muxlislari uchun ayni muddao bo'lardi-da. Vaholanki, mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, sport gimnastikasi dunyo miqyosida tengsiz deb e'tirof etilmoqda.

Gimnastika - sportning murakkab turi. U insondan iroda, matonat va nafas talab etadi. Shuningdek, jismoniy jihatdan ham barkamol bo'lishlikni taqozo etadi.

Yurtimizning afsonaviy gimnastikachisi Oksana Chusovitina Jahon chempionatlarida, Pusandagi 14- Osiyo o'yinlarida ko'rsatgan zo'r mahorati bilan dunyoni lol qoldirdi. Nozigul kabi gimnastikaning cho'qqilari sari dadil intilayotgan

NAFOSAT SOHIBASI

Baxtiyor akaning besh nafar farzandi bor. Oilaning to'ng'ichi Nozigul. Bo'ylari baland, qora mag'izdan kelgan, istarasi issiqqina bu qizni bir ko'rgan odam unga «polvongina qiz ekan» deya ta'rif berishi tayin. Baxtiyor aka qizining jismonan barkamolligini fahmlab, uni 7 yoshidan sport zaliga boshlab keldi. Avvaliga onasiga ham, Nozigulning o'ziga ham sport mashg'ulotlari hecham yoqmagandi. Sport zalidagi hayot bora-bora Nozigulni o'z sehriга torta boshladi. Ayniqsa, murabbiyi Svetlana opaning bolalar bilan ishlash mahorati unga juda ma'qul bo'ldi. Qolaversa, otasining orzumlardini ro'yobga chiqarish uning qo'lida ekanligini anglab yetdi.


Sportda esa eng asosiysi natija. Murabbiyning biroz qatiqqo'lligi bu borada albatta o'z samarasini beradi. Mashaqqatlardan qochmadi. Bo'sh vaqtini doimo

Andijonini, uyidagilarini sog'inaverdi. Uyiga ko'plab xatlar yozdi, hatto o'qib keta olmasam kerak, degan fikrini ham yashirib o'tirmadi. Uning bunday gaplaridan Baxtiyor aka xavotirga tushardi. Qizining shuncha yillik mehnatlari besamar yakun topishini istamasdi-da. Oxiri bir qarorga keldi: Nozigulda sportga astoydil mehr uyg'otishning yagona yo'li - poytaxtga ko'chib kelish edi. Otanasiga bag'rida bo'lib, ko'ngli taskin topgan Nozigul sport sohasida ko'plab muvaffaqiyatlarga erisha boshladi. Uning xalqaro va xorij safarlari ko'paydi. Kuniga ikki mahal bo'ladigan mashg'ulotlar uning uchun odatiy holga aylanib qoldi. Sport maktabidagi qat'iy talab va tartiblilar ham unga og'irlik qilmasdi. Gimnastika go'zal, jozibador va maftunkor sport turlaridan biridir. Maktab o'quvchilari o'rtasida tobora ommaviylashib borayotgan «Umid nihollari» sport musobaqasi dasturiga sportning badiiy gimnastika turi ham

qizlarimizning maqsadi ham ana shulardek bo'lish.

Nozigul sportdagi omadidan nolimaydi. Ammo yana bir yildan so'ng u mustaqil hayotga qadam qo'yadi. Birgina armoni - «Umid nihollari»dek an'anaviy sport musobaqasida tengdoshlari kabi qatnasha olmadi...

-Mamlakatimizda Bolalar sportiga katta ahamiyat berilayotganidan, biz uchun juda keng imkoniyatlar yaratilayotganidan va biz undan bahramand bo'layotganimizdan, dunyoga tanilayotganligimizdan, asosiysi, otajonimning orzularini ro'yobga chiqaralayotganimizdan juda xursandman,- deydi Nozigul to'lqinlanib.



Keyingi paytlarda o'smir qizlarimiz orasida sinxron sport turiga qiziquvchilar soni ortib borayotgani quvonarli holdir.

Poytaxtimizda yaqinda ochilgan «Umid» bolalar sport majmuasida sportning ana shu nazokatli turi sanalmish sinxron suzish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi birinchiligi hamda Toshkent shahar hokimligi sovrini uchun ochiq birinchilik musobaqasi o'tkazildi. Ushbu sport turining ommalashuviga munosib hissalarini qo'shib kelayotgan Xotin- qizlar qo'mitasi, Sinxron suzish federatsiyasi va uning Toshkent shahar bo'limi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, Davlat Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tadbirkorlari xalqaro tashkiloti, Toshkent shahar va Sirdaryo viloyat hokimliklari hamda turli homiylik ko'rsatayotgan tashkilotlarning beg'araz yordami tufayli qisqa muddat ichida diyorimiz «suv parilari» ko'pgina nufuzli musobaqalarda ishtirok etdilar va yurtimiz sharafini munosib himoya qilib kelmoqdalar.

Musobaqaga respublikamizning barcha viloyatlaridan, jumladan, Farg'ona, Jizzax, Sirdaryo, Andijon, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Oshqadaryo, Toshkent, Xorazm va Samarqanddan kelgan qizlar birinchi marta sinxron sport turi bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Musobaqa oldidan ishtirokchilar va ularning murabbiylari yangi suv havzasiga havas bilan boqdilar. Chindan-da, «Umid» bugun yanada chiroy ochgan, bayram shukhi bilan to'lgandi.

-Biz Farg'ona shahridagi Bolalar va o'smirlar sport maktabidan keldik,-deydi murabbiy Oygul Do'rmonova.-Bu yerdagi sharoitlarga juda havasimiz kelyapti.

Musobaqaga 8 nafar ishtirokchimizni olib keldik. Ammo biz bu

safar g'olib bo'la olmaymiz. -Nega, ishonch bilan bunday deyapsiz?

-Chunki bizning suv havzamiz bunday imkoniyatlarga ega emas. Qolaversa, sinxron suzish turidagi mashg'ulotlarimizni boshlaganimizga endigina 2 oy bo'lyapti.

-Oygul, sizningcha bu musobaqalarda qaysi jamoa Toshkent shahar hokimligining sovrinini qo'lga kiritadi?

-Albatta Toshkent shahri jamoasi. Chunki ulardagi shart- sharoitlar hali hech qaysi viloyatda mavjud emas.

Nargiza Siddiqova: -Men sinxron sport turiga juda qiziqaman. Bu musobaqaga biz jamoamiz bilan ikki kun oldin kelib tayyorgarlik ko'rdik. Menimcha, uchinchi o'rinni olsam kerak. Chunki bizning Sirdaryo viloyatida suv havzalari uchun suv katta muammo hisoblanadi. Agar bunday imkoniyatlar bo'lsa biz ham bemalol birinchilar qatorida bo'lardik.

Ushbu musobaqada viloyat vakillari birinchi marotaba qatnashayotgan bo'lsalar-da, musobaqaning birinchi kunidanoq o'z mahoratlarini namoyish eta oldilar.

-Ushbu musobaqani o'tkazishdan ko'zlagan asosiysi maqsadimiz jamoaga nomzodlarni saralash va sinxron sport turini mamlakatimizning



RAQSNING JOZIBASI

barcha hududlarida ommalashishini ta'minlash hamda viloyatlarda sinxron sport turi federatsiyalarini tashkil etishdan iborat edi,- deydi O'zbekiston sinxron suzish federatsiyasining vitse-prezidenti Ma'mura XALILOVA.

-O'ylaymizki, keyingi yoz mavsumidagi bunday musobaqalar viloyat markazlarida ham tashkil etiladi. Yurtimiz yoshlari qayerda bo'lmasin, o'zlari yoqtirgan sport turida bemalol shug'ullanishlarini istaymiz.

«Suv pari»larining jozibali raqslarini

zavq bilan kuzatar ekansiz, bugunning bolalari hali ko'p ishlarga qodirligini his qilaysiz. Murakkab sinxron sport turida o'zlarining dastlabki qadamlarini qo'yayotgan sportchilarimiz qalbida yurt faxri va g'ururi degan tushunchalarning borligidan faxrlanasiz.

Sahifani Ma'mura YIGITALI qizi tayyorladi.

«CHOTQOL - O'ZBEKISTON GAVHARI»

Insonga ona tabiat juda ko'p narsalar in'om etgan. Aridan bol, tikandan gul yaratishga qodir bo'lgan tabiatga biz qanday munosabatda bo'layapmiz? Uni asrash uchun, ozor yetkazmaslik uchun nimalar qilayapmiz? Insoniyatning tabiat in'omlariga shafqatsizlarcha munosabat bildirayotgani hozir sir emas. Ayniqsa, insoniyatning eng katta xatosi Orol dengizining asta-sekinlik bilan quriyotgani, uning bo'shab qolgan qirg'oqlarini qum barxanlari bosayotganligi eng achinarli holdir. O'simliklar dunyosi, hayvonlarning ba'zi turlari qirilib ketish darajasiga yetib qolgan. Shularni butunlay yo'q bo'lib ketishining oldini olish maqsadida qo'riqxonalar tashkil qilingan bo'lib, u yerda hayvonlar va o'simliklarning eng kamyoq turlari saqlanadi. Ana shunday qo'riqxonalaridan biri «Chotqol» qo'riqxonasi. Bizning Pakent tumanimizda Xalqaro tabiatni muhofaza qilish kuniga bag'ishlab «Chotqol - O'zbekiston gavhari» mavzusida katta tadbir o'tkazildi. Tadbirni tuman hokimi muovini, tashkiliy ishlar va nazorat guruhi rahbari Hojimurod Ermatov ochdi. Shundan so'ng, viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining o'rinbosari A.Ma'diyev, tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakat O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi siyosiy kengashi ijroiya qo'mitasi mas'ul xodimi Sh.Oripov, Tyan-shan bioxilma-xilligini asrash bo'yicha markaziy Osiyo chegaralararo loyihasi O'zbekiston Milliy bo'limi rahbari A.Habibullayev,

Ugom-Chotqol O'zbekiston Milliy bog'i boshqarmasi bosh direktorining birinchi o'rinbosari E.Sarimsoqovlar so'zga chiqib,



tadbir qatnashchilariga tog' bag'ridagi mavjud noyob o'simlik va hayvonot dunyosi hamda ularning yo'qolib ketishini oldini olish chora-tadbirlari haqida so'z yuritdilar. «Yoshlar» radiokanali boshlovchisi Vahobiddin Ziyoning badiiy chiqishlari yig'ilganlarga a'lo kayfiyat bag'ishladi. Tumandagi bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilari, maktab o'quvchilari o'zlarining tabiatga bag'ishlab yasagan buyumlari, ko'rgazmali qurollari bilan qatnashdilar. Shu bilan birga «Eng yaxshi ko'rgazmali qurol», «Eng yaxshi uy bekasi», «Eng yaxshi biologiya o'qituvchisi» nominatsiyalariga nomzodlar tanlab olindi. Bunda «Eng yaxshi biologiya o'qituvchisi» nominatsiyasiga 15-o'rta maktabning biologiya fani o'qituvchisi Matluba opa Musayeva sazovor bo'ldilar. Bu tadbir tufayli qatnashchilarning qalbida tabiatga bo'lgan mehr yanada jo'sh urgan bo'lsa, ajabmas.

Venera TURDIYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
15-o'rta maktab o'quvchisi



Erta bahorda ayvonimiz peshtoqiga qaldirg'och uya qurdi. Buvimning aytishlaricha, qaldirg'och tinch-totuv yashaydigan oilalarning xonadonlariga in qurarmish...

Oradan ko'p o'tmay, uyadan og'zilar sap-sariq polaponlar ko'rinib qolishdi. Ota va ona qaldirg'ochlar yemish olib kelishganda uchchala polapon ham baravar og'iz ochishardi. Ammo katta qaldirg'ochlar sira adashmasdan navbati bilan

GOH MEHRIBON, GOHO BESHAFQAT...

ularga ovqat tutishardi. Ko'p o'tmay, polaponlarning bittasi ko'rinmay qoldi. U ora-chora uyadan boshini chiqarib, o'jizgina chiyillab qo'yardi. Yonidagi ikki polapon esa unga ovqat bermas, keltirilgan yemishlarni paqqos tushirishardi. Men ularni har kuni kuzatardim. Hatto bir kuni nimjon polaponga yemish tutdim. Lekin uning ovqat yeyishga majoli ham qolmagandi...

Bir kuni polaponni chala jon bo'lib yerda yotganini ko'rib qoldim. Uni avaylab olib, iniga qo'ydim, ammo sal o'tib, u yana tushib ketdi. Bu holni kuzatib turgan buvim: «U endi yashamaydi. Chunki uni keyinchalik uchishga ham kuchi yetmaydi. Shuning uchun uni tushirib yuborishayapti. Yashash uchun kurash, deyishadi buni» - dedilar. Men o'lik polaponni hovlining bir chekkasiga ko'mib qo'ydim. Unga rosa achindim. Lekin nailoj. Tabiat qonuni shunday ekan. Sirsinoatlarga boy, goh mehribon, goho beshafqat ona tabiatni jilovlashga biz insonlar o'jizmiz.

Nodir SUVONOV,
Toshkent shahri.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Hazrat bog' oralab, andak sayr etardi, shahzoda nevaralar, bamisoli kiyik, osmonga irg'ib o'q uzar, barchalari



o'yinga mashg'ul edilar. Hazrat: «Beri kel!», dedilar meni imlab, uchib qarshilarida hozir bo'ldim. «Ko'r», dedilar shivirlab. Qarasam, Ulug'bek mirzo chamamda, yetti-sakkiz yoshda bo'lsalar kerak, xiyobonning bir yoqasida tanho mukka tushgancha, cho'p bilan tuproqqa allanechuk shakllar chizurdilar, chuqur tafakkurda. Bog'i bihishtda o'zlarini yolg'iz his qilur edilar. «Hazratim, bu shahzodaning bilgich va donishmandliklaridan darakdur», dedim. Xoqon mamnuniyatda kulimsiradilar. «Muhammad Tarag'ay Ulug'bek ismini

ALISHERNING YOSHLIGI

OYBEK

ko'p ixlos bilan qo'ymishdim... Bilimli, o'bdon o'yli bola, shoyad buzrug sarkarda bo'lg'ay», dedilar. Shunda men podshohi olamga qo'l qovustirdim. «Shahzodalarim barchasi Oliy hazratim kabi cheksiz saltanatga munosib jahongir va dunyolarni titratadigan qahramon bo'lajaklar!», dedim. Xoqonning kayflari chog' bo'ldi. Sohibqiron quvonch, orzu, kuchga to'lgan yosh yigitdek yengil bosib chodirga kirib ketdilar. Chodir atrofida qur'on o'qib o'ltirgan qorilar, ovozlarni balandroq qo'yib qirotatni davom ettirdilar. O'zingizga ma'lumki, xoqon o'ltirganlarida, yurganlarida hamisha atroflarida o'nta mo'tabar, bilgich xushovoz qori qur'on o'qib yurardi. Alhamdulillah, mana sulton Ulug'bekni Samarqand taxtida olim, fozil, odil shoh ko'rurimiz. Olamning tilsimlarini, falakiyotning sirlarini chuqur tahlili va tafakkurda tadqiq qilurlar, yulduzlar yo'llarning hisobini bilurlar. Barlos bir dam sukut etdi, borlig'i ila o'tmish xotiralariga berilgan, majlis ahlining kayfiyati qanday: kim quvonib tinglar, kim behuzur- parvoyiga keltirmas edi. Endi bilsam, Temurbek o'zlarining o'tkur ko'zlari bilan sezgan, karomat qilgan ekanlar. Ulug'bek shohlar aro go'yo cho'lpon yulduzlar. Shoir demishki:

*Falak, yillar kerak sayr etsayu
keltirsa ilkiga,
Meningdek shoiri turkiy, seningdek
shohi dononi.*

Barlos Ulug'bekning ilmda mislsiz donishmandligi, kamoloti haqida so'zladi, ma'rifatparvarligini qayd etdi.

-Buxoroda qurdirmish madrasaga «Kulli muslim va muslimalarga ilm talabi farz dur», deb birinchi daf'a tamg'a qilmishlar, Sulton ilm- urfonga ravnaq baxsh etdilar. Albatta, mutaassib kimsalarga bu ma'qul tushmadi, «dinimiz yakson bo'ldi» deb g'avg'o ko'taradilar.

-Bas endi har nechuk lofning ham cheki bordir.

Ulug'bek Mirzoning din va shariat bobidagi xatolarini aytib, to'g'ri yo'l ko'rsatmoq, bizning burchimiz, ulamo va shayxlar mirzoga ifrot zid, ularning g'azab va intiqom tig'lari shu tobda o'tkirlashgan, hayajondan qizarib so'zlardi Husayn Mirzoning otasi G'iyosiddin Mansur.

-Janob Mirzo Mansur, dedi barlos bo'sh kelmasdan, sulton Ulug'bekni zamonamizning Arastusi, Aflotuni deb bilurmen, a'lo hazrat ilmda ne chog'li kamolotga erishgan esalar, din va shariatni ham mukammal bilurlar va rioya qilurlar, ul zotga e'tiqodim zo'r dur.

Majlis ahlidan kimdir bu keskin suhbatga chek qo'yimoqchi bo'ldi shekilli, munozarani bas qilib, o'yinkulgi, qiziq hangomalarga o'tishni taklif etdi. Tag'in kimdir: «Ko'rurimiz, bu mashmashalarning oqibati ne bo'lurkan...», dedi shivirlab.

Abdullatif churq etmay yerga qaragan holda o'ltirar, otasi haqida o'zining so'z ochganligi, ammasining sultonni himoya qilganligi, keksa barlosning madh va maqtovlari nihoyat Mansur Mirzoning aytganlarini teran

tahlil qilur edi. Ichida otasining fazilatlarini rad etolmasa-da, inisi Abdulazizning borgan sari olg'a surilishi, Ulug'bekning unga muhabbati ortiqchiligi shubha tug'dira boshlagani sababida shahzodaning otasiga munosabati keskinlashib, dilida isyon kuchaya borardi.

-Ammajon, hurmatim komildur sizga, deya qo'llari ko'ksida, ayyorona tovushini pasaytirib kampir tomon engashdi Abdullatif. - Padari muborak haqiqatan olim, odil, shijoatkor, bahodirdurlar, bunga aslo shubham yo'q, sadoqatim baland, inoningiz, aybim bo'lsa, kechirgaysiz amma, sultonim, Hirotda har toifa katta-kichik amaldorlar borki, ehtimol qiblagohimga pinhon maktub yo'llasalar...

-Yo'q, yo'q, shahzodam, aslo tashvish qilmagaysiz, ammingiz tasadduq, sizni salomat ko'rganimdan xushnuddurmen, deya javob qildi Xonzoda muloyimlik bilan.

-Behad tashakkur, ulug' sultonim, deya davom etdi Abdullatif. - Oliy hazratga kaminaning bunda buyuk mudarrislar, mo'tabar ulamolalar suhbatlaridan bahramand bo'lib, ilmda kamolot kasb etmog'imni so'zlagaysiz va padari buzurgvorga samimiy duo, chuqur ehtiromimni aytib, yaqin fursatda muborak huzurlariga yetish orzusida bo'lganimni bildirgaysiz.

-Hazrati oliyga aytganlaringizni bajonu dil yetkazurmen, dedi ammasi surmali ko'zlarini suzib.

Ali onasi bilan uyga qaytganida otasi asr namozidan endigina kelib turgan ekan.

(Davomi bor).

Nazarimda bu kasbni egallash juda murakkabdek tuyular, agar bo'lmay qolsamchi, degan xavotirda kim bo'lishimni hammadan sir tutardim», deydi

O'zbekiston

Teleradiokompaniyasi Yoshlar telekanali «Munavvar tong» studiyasining guruh rahbari - Botirali

SHODIYEV.

Biz Botirali akangiz bilan bolalik orzulari haqiqida suhbatlashdik:

- M a k t a b

direktorining farzandi

shu maktabda o'qisa, unga

munosabat o'zgacharoq bo'lardi,

odatda...

-Boshqalarda qanday bilmadimu, men bunday munosabatni hecham sezmaganim. Otam Doniboy aka, onam O'roloy opalar biz 7 nafar farzandning ta'lim-tarbiyamiz bilan juda jiddiy shug'ullanishgan. Hamisha qo'limizda kitob, zimmamizda o'zimizga yarasha yumushimiz bo'lardi. Ularni birdek uddalashimizni otam qattiq nazorat qilardilar. Otamga ko'pchilik juda havas qilardi. Biz ham ularga o'xshashga intildik. Maktab direktorining o'g'li bo'lish, bu barcha sohada o'qishda ham, ishda ham faol bo'lish degan so'z edi. Onamning biron kamchiligimizni sezib qolib: «Bu ishlaring otangning sha'niga to'g'ri kelmaydi», deya bergan tanbehleri biz uchun bir umrga shior bo'lib qolgan desam mubolag'a bo'lmaydi.

-Ish faoliyatingizni O'zbekiston radiosida boshlagan ekansiz-a?

-Radioga ishga kirishim ham juda qiziq bo'lgan. Ishga qabul qilinishimdan avval, tajribali radiojurnalistlarning davra suhbatidan o'tishim lozim edi. Ularning savollariga hayajon bilan javob bera boshladim. Shunda Faxriddin aka

Nizomov dabdurustdan

«Hokimdan qo'rqasizmi?»,

deb savol berib qoldi.

Men «Hokimning

nimasidan qo'rqaman»,

deya javob berdim.

Shunda ular, haqiqiy

jurnalistsning dili va tili

bir bo'lishi lozim. Siz

yaxshi jurnalist bo'la

olasiz, degandilar. Bu kasbni

yaqin ma'noli, mazmunli lavhalar tayyorlashga intilamiz. Bir-birimiz bilan maslahatlashib, hamjihatlikda ish olib boramiz. Ishimizga xolis bahoni albatta tomoshabinlar berishadi.

-Telejurnalistlik o'ta tezkorlikdir.

-Tezkorlik - davr

talabi. Buning uchun

kishidan kuchli bilim



«Bolaligimda televideniya suhandonlarining chiqishlarini havas bilan kuzatib, ulg'aygach albatta telejurnalist bo'laman, deya orzu qilardim.»

KAMTARNING KAMOLI - O'FTOBNING JAMOLI

baxtiyorman. Ish vaqtim tugashi bilan oilam bag'riga shoshilaman. Oromimni ham,

qanchalik yaxshi egalladim bilmadimu, lekin radio men uchun katta tajriba maktabi bo'ldi.

- «Munavvar tong» ko'rsatuvi efirga uzatilayotganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Uning mavzusi «Assalom O'zbekiston» bilan o'xshash bo'lib qolmayaptimi?

-Yo'q albatta. Ko'rib, kuzatib borayotgan bo'lsangiz, bu ko'rsatuvda taqdim etilayotgan barcha lavha va materiallar yosh avlodning iqtidori, intilishlari haqidagi mavzularni qamrab olgan. Bu borada loyiha muallifi Muhammad Ismoilning katta bilim va tajribaga egaligi qo'l kelyapti. Hamkasblarim Guljahon Mardonova, Asomiddin Xalilov, To'lqin Hayitlar, rejissyorlarimiz Hikmatilla Abdusoatov, Qurbonali Iskandarovlar bilan hamkorlikda tomoshabinlar ko'ngliga

talab qilinadi. Qisqa fursatli ko'rsatuvda katta bir mavzu mazmunini ochib bera olishing lozim bo'ladi. Ko'proq tomoshabinni o'ziga jalb qila oladigan yoshlarbop lavhalar tayyorlasam deyman.

-Tanqidga qanday qaraysiz?

-Teledasturlarimiz mazmunli chiqishi uchun albatta tanqid bo'lishi lozim. Kishi o'z kamchiligini o'zi sezmaydi. Lekin o'z g'alar oson payqaydi. Ba'zi birovlar men bugun uni tanqid qilsam, ertaga meni ikki hissa tanqid ostiga oladi, deb noto'g'ri o'ylashadi. Men esa biron aybimni ko'rsatgan insonlardan doimo minnatdor bo'laman.

-Oilada baxtli bo'lgan inson hayotda ham baxtli bo'ladi, deyishadi. Shu gap rostmi?

-Meni intiqlik bilan kutadigan shirinshakar farzandlarim borligidan juda

tinchimni ham oilam bag'ridan topganman. Oiladagi ahillik, jamiki boylikdan ham ustun turadi. Oila ham Vatan ichra kichik bir Vatandir.

-«Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilariga tilaklaringiz.

-Ushbu gazetani bizning bobo-yu momolarimiz, otalarimiz sevib o'qishgan. O'zim ham har bir sonini qo'limdan qo'ymasdan takror-takror o'qirdim. Endi esa farzandlarim uning yangi-yangi ruknlarga boy sahifalarini qiziqib o'qishmoqda. Men ularga gazetani shunchaki ermak uchun emas, balki ma'nosini uqib, mazmunini anglab o'qish lozimligini tushuntiraman. Bolajonlarimiz hamisha bilim bog'ining eng sara gullari bo'lib voyaga yetaverishsin.


Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.

QO'SHNI QISHLOQLIK TABIB

Bir kuni uyimizda hamma qarindoshlar yig'ilishdi. Ular dasturxon atrofida turli voqealar, kulguli hodisalarni aytib, chaq-chaqlashib o'tirishardi. Amakim, men sizlarga bolaligimda bo'lgan voqeani aytib beraman, deb qoldilar. Oraga jimlik cho'kdi. Biz diqqat bilan ularning so'zlarini tinglay boshladik:

-Bu voqea men o'spirinlik vaqtimda ro'y bergandi. Qish kunlarining birida oyim qattiq betob bo'lib qoldilar. Otam menga qo'shni qishloqdagi tabibning uyiga borib, uni tezda olib kelishimni tayinladilar. U yerga borish uchun katta jarlik va qalin daraxtzordan o'tishim kerak edi. Bir

vaqlar bu yerda turli sirli hodisalar yuz bergani haqida eshitganim uchun ham ikkilanib rozi bo'ldim. Ustimga paxtalik kamzulni kiyib, qalpoqni bostirgancha yo'lga tushdim... Ko'cha zimiston, buning ustiga juda sovuq edi. Tez-tez yurib jarlikdagi ko'prikdan o'ta boshladim. Ko'prikiq liqillagan sayin ko'nglim behuzur bo'lardi. Xullas, qo'rqa-pisa ko'prikdan o'tib, kalima o'qib qo'ydim. Endi orada katta-kichik daraxtzor bor edi. Shu yerdan o'tib olsam, marra meniki, deb, allaqanday qo'shiqni o'zimcha xirgoyi qilib ketaverdim. Shu payt ortimdan birov kelayotgandek tuyulaverdi. Orqaga qarashga qo'rqib, qadamimni tezlatdim. Orqamdagi «odam» ham mendan qolishmasdi. Uzoqdan chiroqlar ko'rindi. Qishloqqa yetay deb qoldim deya endi yugurishga tushdim. Ortimdagi odam ham qasdlashgandek yugurardi. Birdan oyog'imdan kimdir torta boshladi. Men



vahimaga tushib, ovozimni boricha dodlay boshladim. Aksiga olib, oyog'imga haligi qo'l yanada mahkamroq yopishar, men esa orqaga qarashga qo'rqardim. Birdan oyog'im toyib, yiqildim, boshim bir narsaga qattiq urildi. Yaqin qolgan chiroqlar avvaliga xira tortib, keyin so'ndi...

Ko'zimni ochganimda bir xonada yotardim. Boshim sirqirab og'rirdi. Tepamda bir nuroniy chol turardi. -Hayriyat, - dedi u menga qarab. Nima bo'lganini anglay olmay, oyim kasal edilar, menga tabib kerak, dedim. U kishi esa: - Xuddi o'sha tabibnikida yotibsan, o'g'lim, - dedi. Menga nima bo'lganini u kishi aytib berdi. Yordamga chaqirganimni bir kishi eshitib qolibdi va fonus bilan kelib, boshim yorilgan, oyog'imga esa qalin chirmovuq o'ralgan holda topib olibdi. Ko'plashib tabibnikiga olib kelishib, bu yerda yaralarimga malham surishibdi.

-Oyog'ing chirmovuqqa o'ralib qolgani uchun qo'rqib ketdingmi? - deb so'radi tabib. Men uyalganimdan nima deyishni bilmay, yerga qarab turaverdim. Tong saharda yo'lga tushdik. Uyga kelsam, mendan xavotir olib o'tirishgan ekan. Bo'lgan voqeani bilgan dadam qotib-qotib kuldilar. Men esa na kulishimni va na yig'lashimni bilardim...

Amakimning gaplaridan keyin kulgu ko'tarildi. Devqomat amakim o'shanda oddiy chirmovuqdan qo'rqib ketganliklari albatta kulguli tuyuladi-da...

Faxriddin YO'LDOSHEV, Toshkent viloyati, Parkent tumani.


Kunlardan bir kun

BEXOSIYAT JARLIK

Inson hayoti davomida turli hodisalarga guvoh bo'ladi, deyishadi. Haqiqatan ham biz hayotimiz davomida turli sir-sinoatlar ro'y beradi. Men sizga aytib beradigan voqea bundan bir necha yil oldin ro'y bergan. U paytda oyijonim jamalaksoch qizaloq bo'lgan ekanlar. Bu voqeani men oyijonimning nomlaridan aytib beraman:

... Bizning qishlog'imizni Bo'rijar deb atashardi. Bu yerda bo'rilar bo'lmasdi-yu, lekin har xil sirli voqealar bo'lib turardi. Bir kuni oyim bilan to'yga borib, juda kech qolib ketdik. Dadamning mastliklari tufayli ularning qadamlariga qarab sekin kelayotsak, ko'chaning o'rtasida yana bir to'yga

duch kelib qoldik. Shunda oyim: - Bizning qishlog'imizda kim to'y qilayotgan ekan, deb dadamga savol nazari bilan qaradi. -Kel, shu yerga ham kirib o'taylik, - deb qaysarlik qila boshladilar dadam. Ularning ra'yiga qarab ko'cha boshida turgan odamlar tomon yura boshladik. Allaqanday musiqaga raqs tushayotgan odamlarni ko'rib, oyimning pinjiga tiqilib olgandim. Ular negadir yurib ketayotgandek tuyulardi menga. Biz ham ularning ortlaridan sekin-sekin oldinga siljiy boshladik. Raqslarga, turli kuylarga «boy» bo'lgan bu «to'y» bizni sehrlab qo'ygandek edi. Shu payt oyoqlarim tagidagi mayda-chuyda toshlarni ko'rib, qattiq baqirib yubordim. -Yo xudoyim, - deb oyijonim meni mahkam ushlab oldilar. Shu payt hamma birdan «yo'qolib qoldi». Ne ko'z bilan qarasa, hammamiz shovullab yotgan katta jarlikning shundoqqina labiga kelib qolgan ekanmiz... Shu-shu bo'ldi-yu, to'ylarga borsak, uyga ertaroq qaytadigan bo'ldik...



Ahmadjon USMONOV, QQASSR, Mang'it shahri, 7-sinf o'quvchisi.

Dilfuza Qalandarova - Xorazm viloyatining Urganch shahrida yashaydi. Oilaning kenjatoyi-erkatoyi bo'lgani uchun ham maktabga ilk bor qadam qo'yganda onasi, qanday o'qirkin, deya biroz xavotirlangandi. Tez orada xavotiri o'rsiz ekanligini angladi. Dilfuza a'lo o'qishi, jamoat ishlaridagi faolligi bilan tez orada sinfning eng oldi o'quvchilari safidan o'rin oldi...

Bu yil u shahardagi 22-maktabning 7 - sinfini a'lo baholarga tamomladi. Hikoya va she'rlar yozish - uning eng sevimli mashg'uloti. Maktabdagi ko'riktanlovlar, kecha va tadbirlar uning ishtirokida o'tmaydi. Dilfuzaning yozgi ta'til kunlari ham juda maroqli va mazmunli o'tyapti. Ingliz tili, tikish, suzish to'garaklariga qatnab, salomatligini mustahkamlayapti, til va hunar o'rganyapti.

Kelgusidagi shifokor bo'lish orzusiga yetishish uchun hozirdanoq astoydil harakat qilyapti.

Quyida e'tiboringizga Dilfuzaning hikoyalaridan birini havola etyapmiz:



O'G'IRLANGAN GUL

Bugun Hakima xolaning tug'ilgan kuni. Onasiga nima sovg'a qilib berilgan?

Tengdoshlarning ijodi

Hilolaning boshi qotgan. Chiroyli atirgullar chamandek ochilib yotgan bog'ning yonidan o'tib ketayotib, xayoliga bir fikr keldi: Ularga guldasta sovg'a qilsam-chi? Shunday qildi ham. Bog'ning egasidan so'rab ham o'tirmay, chiroyli guldasta yasab, onasiga sovg'a qildi. Gullarni ko'rgan Hakima xolaning yuzi quyoshdek charaqlab ketdi.

-Bunday chiroyli gullarni qayerdan olding, ona qizim?- deb so'rab qoldi kutilmaganda.

Boya dugonamning uyiga borgandim. Gullari juda ko'p ekan. Onasidan so'ragandim, berdi, dedi Hilola onasidan ko'zlarim olib qochib.

Hakima xola bir narsadan shubhalandi-yu,

qiziga indamay gullarni guldonga solib qo'ydi...

Ertalab qarashsa, kechagina yashnab turgan gullari so'lib qolibdi. Hilola yig'lab yubordi va bo'lgan voqeani onasiga aytib berdi. Onasi uning qilgan ishi noto'g'ri ekanligini tushuntirdi. Xatosini anglagan Hilola yugurib borib gulning egasiga bor haqiqatini so'zlab berdi. Gulning egasi esa undan xafa emasligini, gullari uchun rozi ekanligini aytdi.

Hilola yelkasidan tog' qulagandek yengil tortib uyiga qaytdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, haligina so'lib, shalpayib turgan gullari qad rostlab, yashnab turibdi. Shunda u birovning ignasihi ham beruxsat olmaslik lozimligini tushunib yetdi.

Dilfuza QALANDAROVA.

TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Mirakmal MIROLIMOV,
Botir UBAYDULLAYEV
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida № 022 raqam bilan 2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«Ijod dunyosi» nashriyot uyi.
Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Toshkent matbaa kombinatida chop etildi.
Adadi - 14486
Buyurtma № J 000338

Gazetani Otabek Eshchanov sahifaladi. Navbatchi: Ozoda Tursunboyeva.

Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198

Bizning elektron pochtamiz: ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks: (99871) 144-37-24

BOLALIGIM



Bolaligim, vujudim ham sig'ar kichik xonamga, Orzularim, tuy'ularim sig'mas butun olamga. Bebosh hislar sayr aylab kezib yurar tortiqni, Sho'x bolalik hadya eldi menga o'lmas tortiqni.

Bolalikning sho'x kuyiga shaydo bo'ldi jayronlar, Ohangidan sarxush bo'lib, yeldek chopdi har yonlar. Ko'nglim misti gulzor bo'lib, bulbulga oshmo bo'ldi, Yurakkinam ajib, jo'shqin histuy'ularga to'ldi.

Bunchalar ham lazattli bolalikdek sho'x onlar, Hayratidan birma-bir to'kilar dard, armonlar. Bolaligim meni tashlab ketmoqlikning kuyida, Men-chi, mahkam tutib olib, ketkazmaslik o'yida.

Uning shirin islari-yu kuyin tinglaydi yurak, Nailoj bu damlarga ham endi ko'nikmoq kerak. Menga ne kerak endi bolaligimdan ortiq, Qalbimda mangu yashar u in'om elgan tortiq.

Dilnavoz QO'LDOSHEVA, Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahridagi 20 - umumta'lim maktabining 6 - sinf o'quvchisi.

TIL

O'RGANISH

Bir bola ingliz tilini o'rganish maqsadida o'qituvchining oldiga boribdi. «Ingliz tilini o'rganish qiyinmi?» deb so'rabdi. «Dastlabki sakkizinchi dars qiyin bo'ladi. Keyin uncha qiyalmaysiz» javob beribdi o'qituvchi. «Unda mening nimadan tikilgan?» to'qqizinchi darsdan boshlab o'rgata qoling!», debdi bolakay.

Ingliz tilidan Olima ALIMOVA tarjimai, Parkent tumanidagi 34-maktabning ingliz tili o'qituvchisi.

Ustoz ijodi

O'QITUVCHI VA BOLA

O'qituvchi: Qo'ydan nima o'lmadi?

Bola: Jun.

O'qituvchi: Yaxshi. Jundan nima tayyorlanadi?

Bola: Bilmayman.

O'qituvchi: Sening paltong nimadan tikilgan?

Bola: Dadamning eski paltosidan.

Tuzuvchi: Toshkent shahridagi Yakkasaroy yengil sanoat kasb-hunar kolleji 1-kurs talabasi Ravshan MALIKOV.

Arsenal yulduzi →				Real hujumchisi →					
								Milan hujumchisi ←	
		Milan darvozaboni ↓	Ispaniya sardori ↓						← Baviya darvozaboni ↓
↓	↑	↓	↓	↓	↓	↓	↓		
Manchester futbolchisi	Milan hujumchisi	Ispaniya klubi		Arsenal futbolchisi ↓	Horvatiya futbolchisi				
		← Damien		Arsenal tayanchi ↓	Zldan-nng laqabi	Chelsi futbolchisi ↑			
		← Shirer					↓	Fransiya hujumchisi ↑	Real hujumchisi ↑
				← Monako hujumchisi	Angliya sardori →				Fransiya klubi ↑
O'zbekiston f/t janaesi →								Futboldagi holat →	



«Mening dugonam» Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi Nodira nomli 12-maktabning 6-sinf o'quvchisi Feruza IBRAGIMOVA chizgan rasmini shunday nomlabdi.

Gazetaning navbatdagi soni 19 iyulda chiqadi.